

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SHARIPOVA MAXLIYOXON G‘AYRATOVNA

RUHIY HOLAT IFODALOVCHI VERBAL VA NOVERBAL
VOSITALAR TADQIQI
(“Ikki eshik orasi” romani misolida)

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Sharipova Maxliyoхon G‘ayratovna

Ruhiy holat ifodalovchi verbal va noverbal vositalar tadqiqi (“Ikki eshik orasi” romani misolida).....3

Sharipova Maxliyoхon Gayratovna

Investigation of verbal and non-verbal means of expressing mental state (based on the novel “Between Two Doors”.....27

Шарипова Махлиёхон Гайратовна

Исследование вербальных и невербальных средств выражения психического состояния (на примере романа “Между двух дверей”).....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ56

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SHARIPOVA MAXLIYOXON G‘AYRATOVNA

**RUHIY HOLAT IFODALOVCHI VERBAL VA NOVERBAL
VOSITALAR TADQIQI
(“Ikki eshik orasi” romani misolida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.3.PhD/Fil5025 bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg‘ona davlat universiteti veb-sahifasi (www.fdu.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rozikova Gulbaxor Zaylobidinovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Jamolitdinova Dilnoza Mirxojiddinovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yarashova Nasiba Jumayevna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100151, Farg‘ona shahri, B.Marg‘inoniy ko‘chasi, 105-uy Tel: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz.

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi 19-uy, Ferghana, 100151. Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.G.Sabirdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiykengash
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.T.Abdupattoyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

M.Y.Mamajonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida global miqyosda sodir bo'layotgan integratsiyalashuv natijasida turli soha fanlarining jadallik bilan rivojlanishi, yangi kashfiyotlar natijasida ilm-fan yo'nalishlarining yanada chuqurlashib, kengayib borishi kuzatilmoqda. Ilm-fan taraqqiyotida yangicha qarashlar, yangicha yondashuvlar talab qilinmoqda. Buning natijasida o'tgan asrning oxirida tilni shaxs omili bilan bog'liq holda o'rganish metodologiyasiga asoslangan antropotsentrik tilshunoslikning turli yo'nalishlari shakllandi. Xususan, pragmalingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, ontolingvistika kabilar o'z tadqiq obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, tahlil usullariga ega bo'lib, tilning inson nutqiy faoliyati jarayonida kuzatiluvchi funksional imkoniyatlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan o'rganish soha taraqqiyotini ta'minlaydigan muhim omillardan hisoblanadi. XXI asr tilshunosligi inson ichki kechinmalari, his-tuyg'ularining tilda aks etish masalasini ham o'rganish zarurligini kun tartibiga qo'yimoqda.

Dunyo tilshunosligida inson ruhiy holatini ifodalovchi turli verbal va noverbal birliklar tadqiqi doimo markaziy o'rinda turgan. Nutqni tinglovchiga to'laqonli va jonli yetkazish uchun tilda mavjud bo'lgan his-hayajon ifodalovchi so'zlardan foydalaniladi, natijada, voqea-hodisalarni tinglovchi ongiga yanada aniq va tushunarli tarzda yetkazib berishga erishiladi. Keyingi yillarda emotsional-ekspressiv leksika, his-hayajon ifodalovchi lisoniy birliklar, so'zning konnotativ ma'nosi kabi masalalarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Zotan, muloqotning jonli, ta'sirli va jozibador bo'lishida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan ruhiy holat ifodalovchi turli verbal va noverbal birliklar va ularning uslubiy, psixolingvistik hamda gender xususiyatlarini tilshunoslikning zamonaviy aspektlarida tadqiq etish zaruriy vazifalardan biriga aylandi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda taraqqiyotning asosi sifatida ilm-fan va ta'lim sohalarini yangi bosqichga olib chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, "ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim"¹. Shunday ekan, bugungi kunda har qaysi jabhada mavjud dolzarb muammolarni ilm-fan yutuqlari asosida hal etish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'zbek tilida ruhiy holat ifodalovchi lingvistik hamda ekstralingvistik vositalarning uslubiy, psixolingvistik va gender xususiyatlari ma'lum bir asarlar misolida yetarlicha tadqiq etilmaganligi mazkur masalani monografik tarzda o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari; 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasi. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998> – 7.04.2022-y. (murojaat sanasi: 10.01.2024).

Qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida'gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsion ish muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida ruhiy holatlarning nutq ekspressivligi, konnotatsiya bilan bog'liq xususiyatlari jahon tilshunosligida keng tadqiq qilingan bo'lib, Y.Galkina-Fedoruk, V.Vinogradov, V.Edmonson, P.Ekman, S.Ionova, Y.Volf, Y.Arnold, V.Teliya, V.Shaxovskiy, A.Verzbika, A.Bell, R.Solomon, L.Stoun kabi tilshunoslar ushbu masalalar yuzasidan tadqiqotlar olib borganlar².

O'zbek tilshunosligida ham bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo'lib, M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov, Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, X.Doniyorov, A.Hojiyev, U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev, Sh.Iskandarova, S.Mo'minov, G.Kabuljonova, H.Jamolxonov, G'.Qambarov, M.Mirtojiyev³ kabi olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida mazkur masalaga ma'lum darajada e'tibor qaratgan bo'lsalar, I.Qo'chqortoyev so'zlarning bog'lanishi asosida emotsional-ekspressivlik hosil bo'lishi⁴, A.Abdullayev emotsional-ekspressivlik ifodalanish usullari⁵, R.Qo'ng'urov, R.Hadyatullayev, Sh.G'oziyeva, G'.Qambarov⁶ subyektiv baho masalasi, M.Mirtojiyev⁷ fonetik vositalar

²Галкина-Федорук Е.М. Об экспрессивности и эмоциональности в языке // Сб. статей по языкознанию. – М., 1958; Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – М., 1959; Edmondson W. Spoken Discourse: a Model for Analysis. London. – К.у., 1981; Ekman P. Emotion in the human face. Second edition. – Cambridge University Press, 1982; Ионова С. Эмотивный компонент значения и методы его описания. – Волгоград: Волгоград. гос. пед. институт, 1983; Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. – М.: Наука, 1985; Арнольд В.И. Лексикология современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1986; Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М.: Наука, 1986; Шаховский В.И. Категоризация эмоций в лексико-семантической системе языка. – Воронеж: Воронежского университета, 1987; Телия В.Н. Механизмы экспрессивной окраски // Человеческий фактор в языке: Языковые механизмы экспрессивности. – М.: Наука, 1991; Wierthbicka A. Defining emotion concepts. Article in Cognitive science. A multidisciplinary journal, 1992; Beall A. Gender and the Perception and expression of emotion: PhD thesis. – Yale University, 1994; Solomon R., Stone L. On Positive and Negative Emotions: Journal for the Theory of Social Behaviour, 2002.

³Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978; Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1 қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980; Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985; Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992; Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1993; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Кабулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005; Қамбаров Ф. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2010.

⁴Кўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977.

⁵ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлиқнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983; Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодаланишининг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987.

⁶ Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент, 1980; Ҳадятуллаев Р. Ўзбек тилида баҳо семаларининг маънолари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. – № 2. – Б.60-65; Ҳозиева Ш. Ўзбек тилида субъектив баҳо ифодаловчи форма ясовчи аффиксларнинг баъзи семантик хусусиятлари ҳақида // Илмий ишлар тўплами. – Тошкент, 1975. – №475. – Б.96-100; Қамбаров Ф. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.

yordamida ekspressivlik ifodalanishi, S.G‘oyibov, Y.Isaqova ⁸ ekspressivlik ifodalovchi leksik birliklarga oid tadqiqotlar olib borganlar. Bu borada M.Mamadaliyeva, Z.Mamarajabova, N.Ahmedova, A.Haydarov, S.Maqsudova, Y.Isaqovalarning tadqiqotlari⁹ ham diqqatga sazovor. Lekin shu kunga qadar ruhiy holat ifodalovchi verbal va noverbal vositalar ma‘lum muallif asari asosida tadqiq qilinmagan. Bu esa ushbu mavzuni monografik planda o‘rganishni taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Antropotsentrik tilshunoslikning dolzarb muammolari” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida qo‘llangan ruhiy holat ifodalovchi verbal va noverbal birliklarni tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon tilshunosligida psixolingvistika, emotsional-ekspressiv qatlam va ruhiy holat ifodalovchi verbal va noverbal vositalar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilish;

ruhiy holat ifodalovchi fonetik, leksik, frazeologik va sintaktik lisoniy birliklarni aniqlash hamda ularning uslubiy xususiyatlarini yoritish;

shaxs ruhiy holatini lisoniy vositalar yordamida ifoda etishda ayollar va erkaklar nutqiga xos lingvogenderologik farqlarni aniqlash;

ruhiy holatni ifoda qilishda assotsiativ birliklarning o‘rni va ahamiyatini yoritish;

ruhiy holatni ifoda qiluvchi prosodik va kinetik vositalarni misollar yordamida dalillash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida qo‘llangan ruhiy holat ifodalovchi verbal va noverbal birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini “Ikki eshik orasi” romanidagi ruhiy holat ifodalovchi verbal va noverbal birliklarning uslubiy, psixolingvistik va gender xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, statistik, kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning yangiligi quyidagilardan iborat:

tilning ekspressiv (emotiv, emotsional yoki affektiv) funksiyasi muloqotda alohida ahamiyat kasb etishi, ekspressivlik yordamida kommunikatsiyaning jonli, qiziqarli va ishonarli chiqishi hamda tinglovchiga psixologik ta’sir ko‘rsatilishi, “Ikki eshik orasi” romanida asar personajlarining ruhiy holati, asosan, ularning

⁷ Миртожиев М. Товушлардаги маънолар. – Тошкент, 1982.

⁸ Гойибов С. Эмоционал-эксpressив лексик қатлам ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1976. – №5. – 198-207; Исақова Ю. Ўзбек тилининг эмоционал сўзлари ва унинг бадиий эстетик функциялари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2021.

⁹ Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив birlikларнинг коннотатив аспекти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997; Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат birlikларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Ҳайдаров А. Коннотатив маънонинг фонетик воситаларда ифодаланиши: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Мақсудова С. Эркин Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012; Исақова Ю. Ўзбек тилининг эмоционал сўзлари ва унинг бадиий-эстетик функциялари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021.

nutqidan anglashilishi, ichki kechinmaga parallel berilgan peyzaj tasviri personajning ruhiy holatiga ishora qilishi aniqlangan;

badiiy matnda *jirkanish*, *g'azab*, *qo'rquv*, *xursandchilik*, *qayg'u* va *hayrat* kabi hissiyotlarning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik uslubiy vositalar orqali ifodalanishi; ruhiy holatni ifoda qilishda lingvogenderologik farqlar ham kuzatilishi, xususan erkaklarning o'z hissiyotini qisqa, lo'nda, aniq, neytral lisoniy vositalar orqali ifodalashi, g'azab, jahl holatlarida vulgar so'zlarni qo'llashlari; ayollarning ijobiy va salbiy ruhiy holatlarni tovushlarni cho'zib talaffuz qilish, undov so'zlar, bo'yoqdor leksik birliklardan foydalangan holda aks ettirishi asoslangan;

badiiy matnda assotsiativ birliklar psixologik jihatdan o'zaro bir-biriga bog'langan holda asar qahramonlarining ruhiy holatini o'quvchiga yaqqolroq namoyon qilish vazifasini bajarishi, o'quvchi ongida vujudga kelgan assotsiativ obraz qahramonning ma'lum vaziyatda o'zini qanday tutgani, o'z ruhiy holatini verbal va noverbal vositalar orqali qanday ifoda qilgani haqida tasavvur paydo qilishi, bu orqali kitobxonga ruhiy ta'sir o'tkazilishi dalillangan;

ruhiy holatni ifoda qiluvchi noverbal vositalar beixtiyor yuzaga chiqadigan va ixtiyoriy amalga oshiriladigan fiziologik holatlar guruhlariga bo'linib, badiiy matnda qahramonning ruhiy holatiga mos intonatsiya *shivirlamoq*, *baqirmoq*, *qichqirmoq*, *chinqirmoq*, *shang'illamoq* *vishillamoq*, *to'ng'illamoq*, *yalinmoq*, *jerkmok*, *xo'rsinmoq*, *uf tortmoq* kabi lisoniy vositalar hamda temp va pauza yordamida aks ettirilishi; tana, qo'l, bosh, ko'z harakatlari yordamida qahramonning ruhiy holati hamda tinglovchiga ijobiy va salbiy munosabati ifodalanishi, badiiy asarda kinetik vositalar o'quvchi tasavvurida vaziyatni yanada aniqroq namoyon qilish uchun qo'llanilishi, ayrim hollarda ma'lum personajlarga xosligi bilan farqlanishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

ruhiy holatlarni ifoda qiluvchi verbal va noverbal vositalarning uslubiy, psixolingvistik va lingvogenderologik xususiyatlarini o'rganish natijasida olingan xulosalar o'zbek tiliga xos badiiy matnlar imkoniyatini yanada chuqurroq o'rganishga yordam berishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

tadqiqot natijalari psixolingvistika, badiiy matn tadqiqi va lingvogenderologiya ta'limida o'quvchilarning bilimlarini, shuningdek, ruhiy holat ifodalovchi verbal va noverbal vositalarning uslubiy xususiyatlarini o'rganishga xizmat qilishi ko'rsatilgan;

tadqiqotda keltirilgan badiiy matnda ruhiy holatlarni ifodalovchi verbal va noverbal vositalar haqidagi ilmiy-nazariy xulosalar boshqa matn turlariga xos ekspressiv vositalarning o'rganilishida manba bo'lishi asoslangan;

tadqiqot natijalari asosida olingan natija va xulosalardan psixolingvistika, badiiy matnning lingvopoetik tahlili, uslubiyat, matn tilshunosligi, lingvogenderologiya fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodini yaratish, tashkil etiladigan ilmiy ma'ruzalar, maxsus kurs va seminarlarda foydalanish mumkinligi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, qo'llanilgan yondashuv, usullar va ma'lumotlarning ilmiy va badiiy manbalardan olinganligi, chiqarilgan xulosalarning tasniflash, tavsiflash, statistik, kontekstual kabi usullar bilan asoslanganligi, xulosa, tavsiyalarning amaliyotda joriy

etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy xulosalar psixolingvistika, matn tilshunosligi, badiiy matn lingvopoetikasi hamda verbal va noverbal birliklarning badiiy matnda qo‘llanishi masalalari yuzasidan mavjud ma’lumotlarni kengaytiradi va to‘ldiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan xulosalar o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish uchun muhim nazariy ma’lumotlar beradi, shuningdek, tadqiqot badiiy matnning lingvopoetik tahlili, uslubiyat, matn tilshunosligi, psixolingvistika, lingvogenderologiya kabi fanlardan yaratiladigan darslik va qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida qo‘llangan ruhiy holat ifodalovchi verbal va noverbal birliklarni tadqiq etish natijasida olingan xulosalardan:

tilning ekspressiv (emotiv, emotsional yoki affektiv) funksiyasi muloqotda alohida ahamiyat kasb etishi, ekspressivlik yordamida kommunikatsiyaning jonli, qiziqarli va ishonarli chiqishi hamda tinglovchiga psixologik ta’sir ko‘rsatilishi, “Ikki eshik orasi” romanida asar personajlarining ruhiy holati, asosan, ularning nutqidan anglashilishi, ichki kechinmaga parallel berilgan peyzaj tasviri personajning ruhiy holatiga ishora qilishi aniqlanganligiga doir xulosalardan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialida bajarilgan “O‘zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 2025-yil 6-maydagi 256/01-01-son ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiya materiallari amaliy loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar va to‘plamlar hamda til korpusi haqida olib borilgan tadqiqotlar uchun ilmiy-amaliy manba sifatida xizmat qilgan;

badiiy matnda assotsiativ birliklar psixologik jihatdan o‘zaro bir-biriga bog‘langan holda asar qahramonlarining ruhiy holatini o‘quvchiga yaqqolroq namoyon qilish vazifasini bajarishi, o‘quvchi ongida vujudga kelgan assotsiativ obraz qahramonning ma’lum vaziyatda o‘zini qanday tutgani, o‘z ruhiy holatini verbal va noverbal vositalar orqali qanday ifoda qilgani haqida tasavvur paydo qilishi, bu orqali kitobxonga ruhiy ta’sir o‘tkazilishi dalillanganligiga doir xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturi doirasida amalga oshirilgan ПФ-201912258-raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025 - yil 12-maydagi 01/4-1894-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqot materiallari loyiha doirasida yaratilgan ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformaning mukammallashuviga xizmat qilgan;

ruhiy holatni ifoda qiluvchi noverbal vositalar beixtiyor yuzaga chiqadigan va ixtiyoriy amalga oshiriladigan fiziologik holatlar guruhlariga bo‘linib, badiiy matnda qahramonning ruhiy holatiga mos intonatsiya *shivirlamoq, baqirmoq, qichqirmoq, chinqirmoq, shang‘illamoq vishillamoq, to‘ng‘illamoq, yalinmoq,*

jerkmog, xo'rsinmog, uf tortmog kabi lisoniy vositalar hamda temp va pauza yordamida aks ettirilishi; tana, qo'l, bosh, ko'z harakatlari yordamida qahramonning ruhiy holati hamda tinglovchiga ijobiy va salbiy munosabati ifodalanishi, badiiy asarda kinetik vositalar o'quvchi tasavvurida vaziyatni yanada aniqroq namoyon qilish uchun qo'llanilishi, ayrim hollarda ma'lum personajlarga xosligi bilan farqlanishi asoslanganligiga oid xulosa va tavsiyalardan 2023-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasi Farg'ona viloyat teleradiokanalining "Xayrli kun", "O'zbekim", "Durдона" ko'rsatuvlari ssenariylarini yozishda foydalanilgan (O'zbekiston respublikasi milliy teleradiokompaniyasi "Farg'ona viloyati teleradiokanali" davlat muassasasining 2025-yil 1-maydagi 01-12/88-son ma'lumotnomasi). Dasturlarda berilgan mazkur ilmiy natijalar ruhiy holat ifodalovchi vositalar haqida tushunchaga ega bo'lish, muloqotning psixolingvistik xususiyatlari hamda nutqiy faoliyatning inson omili, uning ruhiy va psixik holati bilan bog'liq tomonlarini yoritish imkonini berishi bilan alohida ahamiyat kasb etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 147 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi va ularning ishonchliligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati va ularning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinishi hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Ishning birinchi bobi "**Ruhiy holat ifodalovchi birliklarga oid nazariy qarashlar**" deb nomlangan bo'lib, uning dastlabki fasli "*Antropotsentrik tilshunoslik paradigmasida psixolingvistik tadqiqotlarning o'rni*" deb nomlangan.

Til insonga xos muloqotning asosi bo'lib, fikrlar, g'oyalar va his-tuyg'ularni ifodalash uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Til belgilar va qoidalarning murakkab tizimi bo'lib, insonlarga muloqot qilish va o'zaro ijtimoiy aloqaga kirishish imkonini beradi. XX asrning birinchi choragi oxiri va uning keyingi choraklarida tilshunoslik jahon miqyosida mustaqil fan sifatida rivojlandi... Endilikda, ayni mana shu zamonda tilshunoslik fani "ichdan bolaladi". Uning ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yangidan-yangi tarmoqlari ("go'daklari") paydo bo'la boshladi. Tilshunoslik ixtiyorida intralingvistika, psixolingvistika, mentalingvistika, etnolingvistika, paralingvistika, energolingvistika, lingvosinergetika va yana boshqa-boshqa nomlar bilan ataluvchi o'zicha mustaqil

oraliq tarmoqlar paydo bo‘ldi¹⁰. Tilni tadqiq qilishga pragmatik va kognitiv jihatdan yondashish, tilni foydalanuvchi subyekt bilan birgalikda o‘rganish ehtiyoji asnosida vujudga kelgan yangi yo‘nalish va tarmoqlar antropotsentrik paradigmani vujudga keltirdi.

F.Usmanov zamonaviy tilshunoslikka xos xususiyatlar antropotsentriklik va poliparadigmallik ekanini ta’kidlaydi va bunda lisoniy shaxs xususiyatlariga tayanilishini qayd etadi¹¹. Antropotsentrik paradigma bu tadqiqotchilar qiziqishlarining obyektidan subyektga o‘zgarishi, yo‘naltirilishi, ya’ni insonning tilda, tilning esa insonda tahlil qilinishidir. Antropotsentrik tilshunoslik tilni tadqiq etishda markazga insonni qo‘yishi uning asosiy g‘oyasi bo‘lib, bunda inson – til egasi yoki lisoniy shaxsdir. Til egasi – undan foydalanuvchi, uni amalda qo‘llovchi shaxsdir. U yaratgan nutqida o‘zining jismoniy, ijtimoiy, intellektual, hissiy va individual jihatlarini namoyon etadi, aynan shu jihatlar antropotsentrik tadqiqotlar uchun material bo‘lib xizmat qiladi. Antropotsentrik paradigmaning shakllanishi bilan lingvistik tahlilning diqqat markazi inson va uning madaniyatdagi mavjudligi, ya’ni barcha xilma-xilligi bilan til shaxsiga qaratiladi: men – jismoniy, men – ijtimoiy, men – intellektual, men – hissiy, men – nutq yaratuvchi. Matn inson faoliyatining mahsuli sifatida inson tafakkuri dinamikasining natijasi bo‘lib, til resurslaridan foydalangan holda turli usullarda uning ichki dunyosini ifodalaydi¹². “Lisoniy shaxs” o‘zida nutqiy, kommunikativ, madaniy xususiyatlarni jamlaydi. Shaxs, avvalo, jismoniy nutqiy qobiliyatlarga ega, biror tildan ona tili sifatida foydalanuvchi til tashuvchisidir. Insonlar nutqiy qobiliyatga ega bo‘lsalargina tildan foydalana oladilar, bu insonning jismoniy imkoniyatlari – eshita olish, gapira olish, nutq apparati organlarining to‘liq va sog‘lom shakllanganligi kabi omillar bilan belgilanadi. Ayni paytda, ijtimoiy jihatdan har qanday nutq egasi biror tildan ona tili sifatida foydalanadi, uning kelgusi avlodlarga yetkazilishini ta’minlaydi. Bu orqali lisoniy shaxs til tashuvchisi vazifasini bajaradi. Bu xususiyatlarning barchasi, S.Vorkachyov ta’biricha, “nutqiy shaxs”¹³ni anglatadi. “Nutqiy shaxs” esa “lisoniy shaxs”ning birinchi jihatidir, ya’ni lisoniy shaxs jismoniy va ijtimoiy nutqiy qobiliyatlarga ega bo‘lishi zarur. Ikkinchidan, insonlar muloqotsiz mavjud bo‘lolmaydi, o‘zaro muloqot insoniy mavjudlikning belgisidir. Muloqotda esa inson tildan foydalanadi va bu orqali unda “kommunikativ shaxs” belgilari namoyon bo‘ladi. Tilning asosiy vazifasi muloqotni ta’minlash ekanini inobatga olsak, tildan o‘z o‘rnida – muloqotda foydalana olgan “kommunikativ shaxs” – “lisoniy shaxs”ning bir bo‘lagidir. Uchinchidan, har qanday so‘zlovchi o‘z nutqida milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiradi, chunki inson o‘zi mansub madaniyatdan, o‘zi mansub muhitdan ayro holda mavjud bo‘lolmaydi. Til esa inson mansub madaniyatni, shaxsga xos qadriyatlar tizimini, individual jihatlarini aks ettiradi. Bu bilan “lisoniy shaxs”ning “madaniy shaxs” bo‘lagi namoyon bo‘ladi. Lisoniy shaxs antropotsentrik

¹⁰ Бердиалиев А. Ўзбек синхрон социолингвистикаси. – Тошкент, 2019. – Б.6.

¹¹ Usmanov F. O‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. d-ri (DSc) diss. – Andijon, 2024. – B.15.

¹² Баранникова Г. Антропоцентрическая парадигма гуманитарного знания и её лингводидактическая интерпретация // Гуманитарный вестник, 2013, вып. 2 (4). URL: <http://hmbul.bmstu.ru/catalog/lang/ling/35.html> (murojaat sanasi: 15.05.2024).

¹³ Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки, 2001. – №1. – С.64-72.

tadqiqotlarning asosiy subyekti uchun qo‘llaniladigan, o‘zida nutqiy, kommunikativ, madaniy xususiyatlarni jam etadigan termidir.

Psixolingvistika ma‘lum bir sharoitda ma‘lum bir axborotni nutq birliklari vositasida tinglovchiga yetkazishni, bu nutq parchasida so‘zlovchi ruhiyatidagi o‘zgarishlarning aks etishini, uning tinglovchiga ta‘siri masalalarini o‘rganadi. Nutqda axloq-odob, so‘zlashish rasm-rusumlari, nutqning muayyan ehtiyojlari, so‘zlovchi va tinglovchining yoshi, saviyasi, madaniylik darajasi kabilar o‘z aksini topadi va bularning barchasi psixolingvistikaning tadqiq manbayi hisoblanadi.

Bobning ikkinchi fasli “*Badiiy matn va tilning ekspressiv funksiyasi*” deb nomlanadi. Tilshunoslar tomonidan tilning ekspressiv funksiyasiga berilgan ta‘riflar bir-biriga juda yaqin. Rus tilshunosi O.Aleksandrovaning ta‘rificha, “tilning ekspressiv funksiyasi so‘zlovchining hissiy holatini, uning belgilangan narsa va hodisalarga subyektiv munosabatini ifodalash qobiliyatidir”¹⁴. Ekspressiv funksiya so‘zlovchining ichki holatini ifodalash vositasidir, ushbu funksiya yordamida nafaqat ba‘zi ma‘lumotlarni yetkazish, balki so‘zlovchining xabar mazmuniga, suhbatdoshga, muloqot vaziyatiga munosabat bildirish imkoniyati vujudga keladi¹⁵. Inson muloqotini hissiyotlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Hissiyotlarsiz muloqot quruq, notabiiy muloqotga aylanadi. Ekspressiv funksiyaning birlamchi vazifasi tinglovchiga ma‘lumotni yetkazish emas, balki so‘zlovchining ichki holatini, ruhiyatini ifoda qilishdir. Psixologlarning qayd etishicha, barcha tillar uchun xos bo‘lgan olti xil hissiyot mavjud. Bular jirkanish, g‘azab, qo‘rquv, xursandchilik, qayg‘u va hayrat hislari sanaladi. Bu hissiyotlar universal bo‘lish bilan birga, bir-biridan tubdan farq qiladi, keltirilgan hissiyotlar bir-biriga yaqin emas¹⁶. Qayd etish lozimki, hissiy nutq insonlarga xos ruhiy holatning ifodasi sanaladi. Chunki inson o‘z ruhiy holatidan kelib chiqib hissiy markerlangan leksikani tanlaydi, ma‘lum ohang bilan nutq so‘zlaydi. Insonga xos hissiy nutq, jismoniy harakat va holatlar aksariyat hollarda ruhiy holat ifodasi sifatida xizmat qiladi.

Hissiyot ifodasi berilgan mikromatnlar badiiy asarlarda turli usullar vositasida yuzaga keltiriladi. D.Xudoyberganovanning fikricha, ulardan asosiylari quyidagilardan iborat: 1. Asar personajining kechinmalari uning nutqidan anglashiladi. 2. Personajning ruhiy holati asar muallifi nutqi vositasida beriladi. Bunda muallif quyidagi usullardan foydalanadi: a) personajning ruhiy holatini bevosita bayon qiladi; b) personajning jismoniy xatti-harakatlarini ifodalash orqali uning ruhiy holatiga ishora qiladi; v) tabiat tasviri orqali personajning ruhiy holatiga ishora qiladi¹⁷.

Badiiy matnda yozuvchi tabiat tasvirini shunchaki keltirmaydi, tabiat tasviri orqali sodir bo‘ladigan voqeaning yaxshi yoki yomonligi, qahramonning ruhiy holati taxmin qilinishi mumkin: *Butun vujudimda shirin bir titroq turdi. Beixtiyor oyimning qo‘lidan yulqinib chiqib berigi uyga kirdim. Derazaning bug‘lanib qolgan oynasini artib hovliga qaradim. Vaqt yarim kechadan oshgan bo‘lsa ham, tashqari yorug‘ edi. Boyagina yetimchalardek diydirab turgan gultojixo‘rozlar ham, molxonaning qor bosgan tomi ham ko‘zimga olamjahon bo‘lib ko‘rinar, qor*

¹⁴ Александрова О. Проблемы экспрессивного синтаксиса. На материале английского языка: учебное пособие. – М., 1984.

¹⁵ Черницына С. Русский язык с основами языкознания. – Курган, 2010. – С.5.

¹⁶ Ekman P. An argument for basic emotions//Cognition and Emotion, 1992, 6 (3-4). – P.169-200.

¹⁷Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент, 2013. – Б.65-66.

degan narsa shunaqa pokiza bo'lishini, qish degan narsa shunaqa issiq bo'lishini birinchi marta ko'rib turganimga o'zim hayron edim. Oyog'imga suykalgan mushukning yelkasini siladim. Muncha yumshoq! Qor muncha tiniq! Ana, hammayoq yop-yorug'! Shunaqangi yorug'ki, kashta tiksa bo'ladi! (169-bet)

Keltirilgan mikromatnda qo'llangan tasvirlar barchasi uyg'unlikda oqlik, poklik, tiniqlik, yorug'likni aks ettirgan bo'lib, bu sifatlarning barchasi ijobiy his-tuyg'ularni ifoda qiladi. Matnda sifatlashlar (*shirin bir titroq, pokiza qor*), oksyumoron (*issiq qish*), *muncha, shunaqa, shunaqangi* kabi ma'no kuchaytiruvchi so'zlar (*muncha yumshoq, muncha tiniq; shunaqa pokiza, shunaqa issiq; shunaqangi yorug'ki*), shuningdek, *oppoq, yorug'* sifatlari qahramonning xursandchiligini tasvirlashga xizmat qilgan. Qish kechasini tasvirlashda *qorong'u, sovuq, zax* kabi sifatlar qo'llanilishi mumkin edi, aslida ham qish kechalari, odatda, shunday tasvirlanadi. Biroq bu sifatlar Robiyaning ijobiy hissiyotlarini aks ettirmas edi, shu sababdan ham yozuvchi qish kechasini yorug' va tiniq tasvirlash orqali tabiat tasviri va qahramon ruhiy holatini uyg'unlashtira olgan.

Xuddi shu qahramon tilidan hikoya qilingan quyidagi matn parchasida esa tevaraf-atrof xunuk, dahshatli ko'rinadi, chunki bu paytda Robiya sevimli Kimsan akasini urushga jo'nab ketayotganidan xavotirda, qayg'uda: *Tong qorong'isida yo'lga tushdik. Bobom Umar zakunchining ulov jo'natishini kutmasdan o'zining eshak aravasini taxt qildi. Aravada Kimsan akamning qopi, qopning bog'ichidan ushlab oyim o'tiribdi. Aravaning bir tomonida Oqsoqol, ikkinchi tomonida bobom tuproq kechib ketyapti. Kimsan akam ikkalamiz orqaroqda boryapmiz. Bobom xalacho'p bilan eshakning biqiniga nuqib "xix-xix"laydi. Eshak dik-dik qadam bosadi. Sahar salqinida sovugan tuproq hidi yoqadi shekilli, "xirq-xirq" qilib qo'yadi. G'ildiraklar ovozsiz shirillaydi. Chang ko'tariladi. Shom yegan oy g'arib mo'ltiraydi. Goh Kimsan akamga, goh oyimga qarayman. G'ira-shirada Kimsan akamning yuzini aniq ko'rmayman. Lekin atrofni tomosha qilib borayotganini payqayman. Nazarimda u negadir jilmayayotganga o'xshaydi. Oyim ikki bukilib olgan. Xuddi qop-qora toshdan yasalgan haykaldek... Alvasti ko'prikdan o'tayotganimizda qorong'i o'pqonda ilondek vishillayotgan suvga qarab, vahmim keldi. Nazarimda butun dunyoning falokati shu yerga to'planib "bazm" qurayotgandek, atigi bir hafta oldin o'ynab-kulib yurgan odamlar bugun ma'yus tortib qolganidan shodlanib mazax qilayotgandek bo'lib ketdi. Oqsoqolning yuragi siqildi shekilli, Alvasti ko'prik shovqinini bosib shang'illadi...* (107-bet).

Qahramonning salbiy hissiyotlarini, tushkun ruhiy holatini, qo'rquv, xavotir kabi ichki kechinmalarini ifodalashda yozuvchi *qorong'i, qop-qora, qorong'ulik* kabi birliklardan foydalangan. Salbiy bo'yoqdor so'zlar (*vishillamoq, vahm, falokat, ma'yus, mazax qilmoq, shang'illamoq*), iboralar (*yuragi siqilmoq*), o'xshatishlar, metaforalar (*xuddi qop-qora toshdan yasalgan haykaldek, qorong'i o'pqonda ilondek vishillayotgan suv, shom yegan oy g'arib mo'ltiraydi*) kabi vositalar salbiy ruhiy holatni ifodalashga xizmat qilgan. Ko'rinadiki, ijobiy ruhiy holat oqlik, yorug'lik; salbiy ruhiy holat qoralik, qorong'ulik bilan bog'liq holda tasvirlangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Ruhiy holatlarning verbal vositalar orqali ifodalanishi**" deb nomlanib, bobning birinchi fasli "*Uslubiy vositalarning ruhiy holat ifodalashdagi o'rni*" deb nomlangan.

Badiiy matnda personajlarning ruhiy-hissiy holati turli uslubiy vositalar yordamida namoyon bo'ladi. O'xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg'unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi¹⁸.

– *Shomurodga...*

– *Nima?! – U chayon chaqqandek sakrab o'rnidan turdi. Etagining shamoli tegib lampa o'chib qoldi (46-bet).*

Chayon chaqqan (odam)day ifodasi “O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati”da quyidagicha izohlanadi: “Sapchimoq, sakrab ketmoq, keskin harakat qilmoq. Birdaniga, tezlik bilan biron harakat qilmoq”¹⁹.

Ironik mazmun ifodalash usuli subyektiv munosabatning bir ko'rinishi bo'lib, ko'proq suhbatdoshga nisbatan tanqidiy qarash va shu asosda yashirin salbiy munosabat bildirishdan iborat bo'ladi. Masalan: *Kechqurun ovqatdan keyin bobom Kimsan akamni so'roqqa tutib qoldi: – Uchuvchi bo'laman, deng, boyvachcha? Kimsan akam iyagidagi husnbuzarni tirnog'i bilan sitib, o'shshayib o'tiraverdi. Bu uning: “Ha, qo'lingizdan kelganini qiling”, degani edi. – Menga qarang, boyvachcha! – bobom tajanglik bilan bo'ynini cho'zdi. – Ketmoningiz yengillik qilib qolganga o'xshaydi. Molxonaga kiring, yarim pudli ketmon turibdi! Ana o'shani mining-da, dalaga chiqib ayriplon qilib uching, xo'pmi? (72-bet)*

Badiiy matnda ironiya yordamida norozilik, jahl, g'azab kabi salbiy ruhiy-hissiy holatlar ifoda qilinadi. Ayrim hollarda ilinj va aksincha, umidsizlik, ishonchsizlik ham ironiya yordamida ifodalanishi mumkin. shuningdek, badiiy uslubda ironiya qahramon shaxsiy xarakterini ham namoyon qiladi.

Fonetik vositalar. Unli va undoshlarning talaffuz jarayoni orqali turli xil fonostilistik vositalarni yuzaga chiqarish mumkin. Birgina unli tovushning cho'zib talaffuz qilinishi yoki undosh tovushning geminatsiya hodisasiga uchrashi asarlarda muallif tomonidan qahramon xarakterini to'laqonli ochib berishga xizmat qilishi mumkin. Fonetik sathdagi normadan og'ish muayyan badiiy-estetik maqsadni ko'zlagan holda so'zlardagi nutq tovushlarining odatdagidan cho'zib, orttirib yoki tushirib talaffuz etilishi, bir tovush o'rnida boshqasining talaffuz qilinishi kuzatiladi. So'zdagi tovushning cho'zib talaffuz qilinishi ma'noni kuchaytirishga, belgini orttirib ifodalash, ruhiy holat yoki muayyan munosabatni aniqroq ifodalashga xizmat qiladi²⁰. “Ikki eshik orasi” asarida fonetik stilistik vositalar, xususan, tovush cho'zilishi, asosan, ayol qahramonlar nutqida qo'llangan. Bu orqali ayollarning hissiyotlarga beriluvchanligi, ruhiy holatini tovushlar bilan ham ifoda qilishi namoyon bo'ladi:

– *Obketi-ing! – Ra'no kelinoyim yalinib iltijo qildi (152-bet).*

Bu misolda i unilisining cho'zib talaffuz qilinishi iltijo, yalinish ma'nosini kuchaytirish bilan bir qatorda Ra'noning eri urushga ketayotgan paytdagi ruhiy holatini, bezovtaligi, xavotirini ifodalashga xizmat qilgan.

¹⁸ Махмудов Н. Ўхшатишлар – образли миллий тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2013. – Б.6.

¹⁹ Махмудов Н. Худойбергана Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2013. – Б.244.

²⁰ Dusmatov X., Mahmudova Z. Uslubshunoslik asoslari [qayta ishlangan va to'ldirilgan nashr]. – Farg'ona: Classic, 2022. – B.70.

– *Bolajon! Sho‘rginam qursin, bolajo-o-on!* (129-bet)

Robiya nutqidan keltirilgan ushbu parchada ham o‘tovushining cho‘zib talaffuz qilinishi uning urushga nisbatan nafratini, qalbidagi g‘alayonlarni, to‘fonday otilib chiqayotgan hayqiriqlarni ifoda qiladi, yig‘lab holdan toygan ayolning ruhiy holati aynan shu tovush cho‘zilishi bilan yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Leksik vositalar. Ruhiy holat ifodalanishida duo va qarg‘ish ifodalovchi so‘zlar, vulgarizmlar, jargonlar leksik vositalar sifatida ahamiyatli sanaladi.

Duo va qarg‘ish ifodalovchi lisoniy birliklar so‘zlovchining ruhiy holatini ifoda qiladi. Duo ko‘p hollarda suhbatdoshning xursandligi, tinglovchidan mamnunligini anglatasa, qarg‘ish o‘ta yuqori darajadagi salbiy hissiy holatni ifodalaydi.

– *Kalamush! – dedim yig‘lab. – Xumda kalamush bor ekan. Mosh bilan urishtirmoqchi edim. – O‘lsin! – Ammam nafasi g‘ijillab boshidan ro‘molini yulqib oldi. Sochlari yoyilib popuk tangalari jiringlab ketdi. – Kalamush o‘la qolsin! Xumni yiqitsangu, o‘z joyiga ketardi. Otangga nima deyman? Erka bola bo‘lsang...* (30-bet)

Ushbu matn parchasidagi *O‘lsin!*, *Kalamush o‘la qolsin!* qarg‘ishi qattiq qo‘rquv, hayajon natijasida qo‘llangan.

Tilshunoslikda vulgarizmlar deb ataluvchi haqorat so‘zlarida o‘ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari ochiq ko‘rinib turgan bo‘ladi. Bunday so‘zlar ko‘proq nominativ ma‘nolariga ko‘ra emas, ayni shu konnotativ ma‘nolariga ko‘ra nutqda yashaydi. Haqorat so‘zlari badiiy asarlarda, asosan, qahramonlar nutqida ishlatiladi²¹.

– *Raisman, deb ja o‘zingdan ketma! Husan Dumani endi ko‘ryapsanmi, ahmoq!* (52-bet)

Ahmoq, tentak, kallavaram kabi vulgarizmlar so‘zlovchining suhbatdoshga nisbatan salbiy munosabati – g‘azabi, jahli, noroziligini ifoda qilib keladi.

Frazeologizmlar voqea-hodisa, belgilarning inson ongiga kuchli ta‘sir qilishi, shu kuchli ta‘sir natijasini nutqda to‘laligicha ifodalash, umuman, fikrning ta‘sirchanligiga erishish maqsadi zaminida yaratilgan til hodisasidir²². Ular hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalariidir.

Ko‘ngil leksemasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta‘riflanadi: Kishining his-tuyg‘u va kechinmalari manbayi; yurak, qalb, dil²³. So‘zning lug‘aviy ma‘nosidanoq anglash mumkinki, *ko‘ngil* aynan his-tuyg‘ular, kechinmalar manbayi sifatida so‘zlovchining ruhiy holatini namoyon qiladi. Shu sababdan ham muallif qahramonlar ruhiy-hissiy holatini tasvirlashda *ko‘ngil* leksemali iboralardan keng foydalangan. Masalan, asarda qahramonning ijobiy ruhiy holatini ifodalash uchun *ko‘ngli yorishmoq* iborasi qo‘llangan:

Oqsoqol buvaning gapi “ertaga dadangni obkeb beraman” degandek tuyulib, o‘zimning ham ko‘nglim yorishdi (63-bet).

²¹ Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2008. – B.63-64.

²² Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент, 1987. – Б.4.

²³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. II jild. – Toshkent, 2023. – B.1030.

Bu yerda *ko'ngli yorishmoq* iborasi o'rniga *xursand bo'lmoq* ifodasi qo'llanganida qahramonning ichki kechinmalari to'laligicha yoritilmay qolardi. Robiya xafa, g'am-anduhga botib o'tirganda oqsoqoldan eshitgan gapi uning "qora" ko'nglini "yoritadi". *Xursand bo'lmoq* ifodasida esa Robiyaning ko'ngli asli "qora"ligi, xafa bo'lib o'tirgani ko'rinmay qolardi. Shu sababli ham ibora qahramonning ruhiy-hissiy holatini aniq va to'laligicha namoyon qilish uchun xizmat qilgan.

Asarda *ko'ngli alg'ov-dalg'ov bo'lmoq*, *ko'ngliga g'ulg'ula tushmoq*, *ko'ngli g'ash tortmoq*, *ko'ngli xufton bo'lmoq* kabi frazeologizmlar salbiy ruhiy holatni aks ettirish uchun qo'llangan.

Asarda *yurak* leksemasi asosida shakllangan iboralar ham qo'llangan bo'lib, *yuragi qalqib ketmoq*, *yuragi uvushib ketmoq*, *yuragi ezilmoq*, *yuragi g'ash tortmoq* kabilar shular jumlasidandir:

– *Shomurod akamnikiga ketyapsizmi? – dedi salom berib. – Tezroq bora qoling. Yuragim bir qalqib tushdi. – Tinchlikmi? – Tinchlik. Xavotir olmang... – dedi-yu ketaverdi* (42-bet).

Morfologik vositalar. Qahramonlarining ruhiy-hissiy holatini yaqqol namoyon etadigan vositalardan biri undov so'zlar hisoblanadi. Undov so'zlar aslida his-hayajon, haydash, chaqirish kabi ma'nolarni ifodalovchi so'zlar bo'lib, bu lisoniy vositalarning lug'aviy ma'nosidanoq ularning his-hayajon, ruhiyat ifoda etishi anglashiladi. Undov so'zlar turlicha va ular ijobiy, salbiy hissiyotlarni, ruhiy holatni ifoda etishga yordam beradi.

Shavkat Qudratovichning rangi gezarib ketdi.

– *O'h-ho'! Ja osmondasiz-ku, yigit!.. Gap bunday: uch kunda to'rtinchi qavatni montaj qilib, tomni yopasiz* (7-bet).

O'hho' yoki *o'ho'* undov so'zi taajjub, hayrat kabi hissiy kechinmalarni ifodalaydi va ko'proq ijobiy kontekstda qo'llanadi. Lekin keltirilgan misolda *o'hho'* undov so'zi kinoya, mensimaslik, jahl va g'azabni ifodalab, so'zlovchining salbiy ruhiy holatiga ishora qiladi.

Vuy undov so'zi mubolag'ani, hayratni ifodalaydi va, asosan, ayollar nutqida qo'llanishi bilan farqlanadi: *Mo'rcha burchagidagi liqildoq kursida shamshod taroq bilan sochimni tarab o'tirsam, Zuhra kelin boshimga egildi. – Vuy, – dedi yerga tegib turgan ho'l sochimni kaftiga olib, – yarmisini bering, Robiyaxon* (84-bet).

Sintaktik vositalar. Takror – asosan, badiiy nutqqa xos sintaktik-stilistik ifoda usullaridan biri. Til yoki nutq birliklarini ataylab, aynan takrorlash orqali muallif o'z fikrining ta'sir kuchini oshirishga, his-tuyg'ularini bo'rttirib ifodalashga erishadi. Takrorning funksiyasi muallif nutqini ta'sirchan etish, fikrni aniqlashtirish va, eng muhimi, unga tinglovchi yoki o'quvchini ishontirish kabi xususiyatlarni ifodalashdan iborat²⁴. Takrordan yozuvchilar qahramonning ruhiy holatini ifodalashda vosita sifatida foydalanadilar. Quyidagi matnda *Obketing!* gapi yetti marta takrorlangan:

– *Obketing! – Ra'no kelinoyimning bo'g'zidan bo'g'iq nido otilib chiqdi. – Obketing! Askarlarning kir-chirini yuvaman. Ovqat pishiraman! Yarasini bog'layman! Obketing. Jon Shomurod aka! Obketing! – Ra'no! – Asabiylashganidan tog'amning ovozi baland, keskin chiqdi. – Qo'ysang-chi endi. – Obketi-ing! –*

²⁴ Mamajonov A., Rozikova G. Sintaktik stilistikaning nazariy masalalari. – Farg'ona, 2024. – B.22.

Ra'no kelinoyim yalinib iltijo qildi. – Ra'no, jinnimisan? Tursang-chi! Ana, hammayog'ing shallabo bo'ldi. – Bo'la qolsin! – Ra'no kelinoyimning ovozi tahdidli yangradi. – Obketing! Obketing. Yo obketasiz, yo o'ldirib ketasiz! (152-bet)

Bobning ikkinchi fasli “*So'zlovchining ruhiy-hissiy holatiga bog'liq nutqning lingvogenderologik xususiyatlari*” deb nomlanadi. So'nggi yillarda tilning inson bilan bog'liq xususiyatlari o'rganila boshlagach, erkaklar va ayollar nutqining farqli jihatlarini ham tilshunoslarning e'tiborini o'ziga jalb qila boshladi. O'zbek tilshunosligida nutqning jins jihatidan xoslanishiga oid bir qator tadqiqotlar yaratilgan²⁵.

Oyim teskari qarab, kafti bilan yuzini to'sganча hiqillab yig'lab yubordi. – Urush boshlanibdi! – dedi bobom siniq ohangda. Yurtimizga nemis bostirib kiribdi. Hiqillab yig'layotgan oyim to'satdan ovozini baralla qo'yib yubordi. – Voy sho're-em! Bu balo qayoqda turgan ekan. Sho'rginam qursin! – Sannama-ye! – bobom o'shqirib berdi. – O'chir! (100-bet)

Asardan keltirilgan parchada erkak va ayol nutqi yordamida ularning ruhiy holati yaqqol namoyon bo'ladi. Bir xil vaziyatga ikki jins vakilining ikki xil reaksiyasi lingvistik va paralingvistik vositalar yordamida ko'rsatib berilgan. Erkaklarning vaziyatga bosiqlik bilan yondashishi, aniq, lo'nda va neytral leksik birliklardan foydalanib so'zlashi *Urush boshlanibdi! – dedi bobom siniq ohangda. Yurtimizga nemis bostirib kiribdi* deb vaziyat haqida xabar berishida aks etgan bo'lsa, qisqa, lekin keskin ohang bilan gapirishi – *Sannama-ye! – bobom o'shqirib berdi. – O'chir!* gaplari orqali yuzaga chiqqan. O'shqirish ham erkaklarga xos sanaladi va erkak kishining ovozini balandlatib gapirishini bildiradi. Bunda erkak kishi tomonidan vaziyatning nazorat qilinishi, ayollarning hissiyotlarini bostirishga urinishi ham ko'zga tashlanadi.

Ayollarning his-hayajonga beriluvchanligi, tez va tas'irchan reaksiya bildirishi ham yuqoridagi misolda aks etgan: *Hiqillab yig'layotgan oyim to'satdan ovozini baralla qo'yib yubordi. – Voy sho're-em! Bu balo qayoqda turgan ekan. Sho'rginam qursin!* Sovuq xabarni eshitgach, ovozini barilla qo'yib yig'lab yuborish, undov so'zlardan (*Voy sho're-em!*) foydalanish, tovushlarni cho'zib talaffuz qilish (*sho're-em*), bo'yoqqa ega leksik birliklardan foydalanish (*Sho'rginam qursin!*) ayollarga xos nutqning emotsional jihatlarini namoyon qiladi. Shuningdek, paralingvistik vositalar (*teskari qarab, kafti bilan yuzini to'sganча hiqillab yig'lab yubordi*) ham ayollarga xos emotsional holatni aks ettiradi. Shunga ko'ra, erkaklarning qisqa, lo'nda, aniq, neytral lisoniy vositalar bilan so'zlashini, ayollarda tovushlarning cho'zib talaffuz qilinishi, undov so'zlar,

²⁵ Iskandarova Ш. Ўзбек нутк одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 1993; Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг жинс жиҳатидан хосланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1999. – №5. – Б.64-66; Тўхтасинов М.И. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Ташкент, 2011; Эргашева Г. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий типологик тадқиқи: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2011; Насруллаева Н. Инглиз ва ўзбек тилларида оламнинг фразеологик манзарасида гендер концептларининг шаклланиши: Филол.фан. д-ри (DSc) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Мусаева Ф.Т. Ўзбек тилида жинс тушунчасининг ифодаланиши: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Абдевахобова М. Инглиз, италян ва ўзбек фольклор матнларида гендернинг тил воситаларида ифодаланиши: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Гулямова Ш. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Бухоро, 2020; Ниязова Г. Детектив романлар тилининг социопрагматик аспекти ва гендер хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022; Ismoilova D. Lingvogenderologiya. – Farg'ona, 2024.

bo‘yoqdor leksikadan foydalanish lingvogenderologik farqlar sifatida ko‘rsatilishi mumkin.

Ayollar tabiatan nafosat sohibalari bo‘lganligi sababli, suhbat jarayonida ham jozibador va bo‘yoqdor leksemalarni, shaxsiy munosabat ifodalovchi so‘zlarni, ijobiy bo‘yoqdor so‘zlarni ko‘proq qo‘llaydilar. Suhbat predmeti biroz bo‘rttirilgan holda bo‘ladi. Emotsional holatlar: hayratlanish, sevinish, qo‘rqish, nafratlanish, xafa bo‘lish kabi ruhiy-fiziologik jarayonlarni ularda kuzatishimiz mumkin²⁶. Ayollar nutqida fikrni bo‘rttirib ifodalash quyidagi misol yordamida tahlil qilinishi mumkin:

To‘y tashvishi chiqqanidan buyon Ko‘tarmaga – Shomurod tog‘amnikiga kuniga uch martadan qatnayotgan oyim ahvolimni ko‘rib qo‘rqib ketdi. – Voy, mengina o‘lay, bu tashvish ham bor ekanmi,– deb boshimda parvona bo‘lib qoldi (89-bet).

Vaziyatga baho berishda ayollarning sodir bo‘layotgan voqea-hodisani vahima bilan bo‘rttirib ifodalashi so‘zlovchining voy undov so‘zini qo‘llashi, salbiy bo‘yoqdor leksika (*mengina o‘lay*)dan foydalanishi, shuningdek, ritorik so‘roq gap (*bu tashvish ham bor ekanmi*) yordamida ko‘rsatib berilgan. Ayol kishining fikrni bo‘rttirib ifoda qilishi esa uning hissiyotga beriluvchanligi, o‘zining ruhiy-hissiy holatini ochiq-oydin namoyon qilishga moyilligi, tez hissiy reaksiya bildirishi natijasida sodir bo‘ladigan jarayon sanaladi.

O‘zbek ayollari nutqida “voy” undov so‘zi keng qo‘llanadi. Sh.Iskandarova bu so‘zning o‘ndan ortiq ma’no ottenkalari borligini keltirib o‘tgan²⁷.

Voy o‘lay, voy o‘lmasam, voy mengina o‘lay, voy sho‘rim qursin kabilar so‘zlovchining xavotiri, qo‘rquvi, vaziyatga salbiy munosabatini bildiradi. *Voy o‘lsin* shaklida qo‘llanilishi esa jahl chiqishi, yengil norozilik ma’nolarini bildiradi: – *Voy o‘lsin! – Fotima kelin qiqirlab kuldi. – Abzi yana ichib oldi shekilli, zahariga (84-bet).*

Erkaklarning tabiatan og‘ir-bosiq, vazmin, uncha-munchaga parvoyini buzmaydigan xislatlari bilan birga, ularda agressiyaning kuchliligi erkaklar nitqida salbiy bo‘yoqdor so‘zlar va vulgarizmlarning qo‘llanilishiga olib keladi:

Oltita bolam yeyman, ichaman deb turibdi. To‘rttasi maktabga boradi. Onangni emgurni bolalariga bittadan papka oberishgayam yetmaydi-ku, bu qizitaloq! – U jahl bilan kissasiga shapatiladi (9-bet).

Onangni emgur, qizitaloq kabi vulgar so‘zlar aynan erkaklar nutqiga xos bo‘lib, ayollar nutqida qo‘llanilmaydi. Erkak kishiga xos kuchli alam, nafrat, jahlni ifodalash uchun qo‘llanilgan ushbu leksik birliklar va paralingvistik vosita (*jahl bilan kissasiga shapatiladi*) yordamida qahramonning salbiy ruhiy-hissiy holati ifoda qilingan. Jahl bilan kissasiga shapatilash, o‘ziga yoki yonida turgan biror jismga jismoniy kuch ishlatish aynan erkaklarga xos paralingvistik vositalar sanalib, ulardagi o‘ta kuchli hissiy bosimni, agressiyani ko‘rsatadi. Badiiy asarlarda qo‘llanilganda esa bu nolisoniy harakatlar yordamida erkaklar tabiatiga xos ayrim jihatlar va qahramonning ichki tuyg‘ulari o‘z ifodasini topadi.

²⁶ Ko‘chimova P. Erkak va ayollar nutqida murojaat so‘zlar semantikasi // International scientific-practical conference on the topic of “Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages”. Volume 2 | Special issue 20. – P.684.

²⁷ Iskandarova Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 1993.

Bobning uchinchi fasli “*Ruhiy holatlarning lisoniy assotsiatsiyalar yordamida verballashuvi*” deb nomlanadi. So‘nggi yillarda tilshunoslikda til va tafakkur munosabatlarini o‘rganishga qiziqish kuchaydi. Shu jumladan, ma’lum so‘z yoki boshqa lisoniy birlikning inson ongida boshqa lisoniy vositalar bilan o‘zaro uyg‘unlikda mavjudligi masalasi ham keng tadqiq qilina boshlandi. Natijada tilshunoslikda assotsiativ tilshunoslik yangi yo‘nalish sifatida vujudga keldi, o‘zbek tilshunosligida lisoniy yoxud verbal assotsiatsiyalar A.Nurmonov, Sh.Iskandarova, N.Hoshimova, D.Xudoyberganova, D.Lutfullayeva²⁸ lar tomonidan tadqiq qilindi.

Inson ongida hosil bo‘lgan bir-birini eslatuvchi psixik tasavvur, g‘oyalar psixologik assotsiatsiyalar sanaladi. Lingvistik assotsiatsiyalar (verbal assotsiatsiyalar) ham til egasining voqelik haqidagi psixologik tasavvuri asosida yuzaga keladi, ammo bu tasavvur tilda bir-biri bilan muayyan belgisiga ko‘ra aloqada bo‘lgan aniq lisoniy birliklar orqali reallashadi²⁹. Ko‘rinadiki, har qanday verbal assotsiatsiyaning vujudga kelishi uchun psixologik tasavvur mavjudligi va psixologik assotsiatsiyalarning xususiyatlari muhim sanaladi. Demak, assotsiatsiyalar inson ongidan o‘zaro bog‘liq shaklda o‘rin olgan. Aynan ruhiy-hissiy holatni ifoda qiluvchi assotsiatsiyalar esa badiiy asarlarda alohida o‘rin tutadi. Chunki “matnda psixologik holatlarni ifodalashda assotsiativ so‘zlar muhim o‘rin egallaydi. Bunday so‘zlar matnda o‘ziga xos assotsiativ maydon hosil qilib, matn o‘quvchisining ruhiyatida ham muayyan holatni yuzaga keltiradi. Bunday holatning yuzaga kelishiga matnda qo‘llangan, psixologik jihatdan o‘zaro aloqador bo‘lgan so‘zlar haqidagi obrazlarning qayta tiklanishi sabab bo‘ladi”³⁰.

– *Obbo! Ja, olasan-da, senam. Xotin kishi erga tekkanidan keyin tug‘adi-da. Sendan so‘rab o‘tirarmidi, – Ikrom aka do‘stining yelkasiga shapatiladi. – Qo‘y endi, tudovoy-sudovoy gaplarni...*

– *E, bor-e! – u shiddat bilan burildi. – Har kuni o‘n martadan qulog‘ingni qoqib qo‘lingga beradigan xotining bo‘lmasa, yo‘lingga termulib turgan bolalaring bo‘lmasa, gapni kim qo‘yibdi senga!* (10-bet)

Keltirilgan parchada Safar aka nutqida alamzadalik hissi aks etgan bo‘lib, bu alamzadalikning sababi sifatida ayol kishi, ya’ni xotini keltirilgan. Matnda qo‘llangan *xotin kishi, erga tegmoq, tug‘moq, quloqni qoqib qo‘lga beradigan xotin, yo‘lga termulib turgan bolalar* leksik va frazeologik assotsiativ birliklari esa yuqoridagi fikrni, ya’ni alamzadalik ortida Safar akaning xotini turganini o‘quvchi ongiga singdirish vazifasini bajargan.

Sintaktik vositalar assotsiativ tarzda qahramon ruhiy holatining chuqur va keng yoritilishiga xizmat qiladi, chunki tayyor birliklar inson ongida qolip sifatida joylangan bo‘ladi. Ular oson tushuniladi, tez qabul qilinadi. Bunday tez va oson qabul qilinuvchi sintaktik birliklar yordamida esa ichki kechinma va hissiyotlar aniq ifoda qilinadi: *Robi opam qiyiqchani tizzasiga yoyib uzoq qarab qoldi. Qiyiqchani sekin-sekin siladi. Avval rangi o‘chdi. Keyin lablari pirpiray boshladi. Qiyiqchani yuziga bosdi-yu, yelkari titrab-titrab, birdan o‘zini namat to‘shalgan*

²⁸ Нурмонов А. Парадигма ва унинг оламнинг лисоний манзараси (ОЛМ)га муносабати. Танланган асарлар. III жилдли. III жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012; Искандарова Ш., Хошимова Н. Нутқ жараёнида ассоциацияларнинг воқеланиши //АнДУ. Илмий хабарлар. – Андижон, 2010. – №2. – Б.85-88; Худойберганова Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент, 2013; Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография. – Тошкент, 2017.

²⁹ Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография. – Тошкент, 2017. – Б.24.

³⁰ Худойберганова Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент, 2013. – Б.121.

yerga otdi. – Nochorman! – dedi o‘krab. – Sho‘rim qursin! Qaddini rostlab, qiyiqchani bag‘riga bosgancha yana muk tushdi. – Kechiring meni! – dedi qiyiqchani yuziga bosib. – Rozi bo‘ling! Surma aralash ko‘z yoshidan qiyiqcha bir zumda qop-qora bo‘lib ketdi. U qiyiqchani labiga bosgancha bo‘g‘iq ovozda ayanchli chinqirdi. – Boshimni qayoqqa olib ketay! – Ikki qo‘lini qiyiqcha aralash baland ko‘tarib sochini changalladi. – Urush qilmay, uying kuygurlar! Bolang o‘lgurlar! – U ilon chaqqan odamdek butun gavdasi bilan betoqat to‘lg‘onar, sochi to‘zg‘ib, ko‘zlari olayib ketgan edi. Qo‘rqib ketdim. Dadamning: “Yaxshi bola bo‘lmasang, Robi opang ketib qoladi”, degani esimga tushdi. – Yig‘lamang! – dedim quchoqlab. – Robi opa, yiglamang, oyi... Mayli, dadamminan yotmayman, sizminan yotaman... U o‘tirgan joyida meni bag‘riga bosdi. Ko‘z yoshidan jiqqa ho‘l bo‘lib ketgan yuzini yuzimga bosib, ingradi: – Bolajon! Sho‘rginam qursin, bolajo-o-on! (129-bet)

Matnda Robiya nutqida qo‘llangan sintaktik assotsiatsiyalar o‘zaro bir-birini to‘ldirgan holda uning ruhiy holati, ichki kechinmalarini aks ettirishga, bu holatni o‘quvchiga ta’sirli qilib yetkazishga xizmat qilgan. Robiyaning nochorligi, ilojsizligi *Nochorman! Sho‘rim qursin! Boshimni qayoqqa olib ketay! Bolajon! Sho‘rginam qursin, bolajo-o-on!* sintaktik birliklari yordamida, o‘zini aybdor his qilayotganligi *Kechiring meni! Rozi bo‘ling!* gaplari yordamida, hozirgi vaziyati, o‘zining ilojsiz, nochor ahvoldaligi uchun urushni ayblayotgani *Urush qilmay, uying kuygurlar! Bolang o‘lgurlar!* birliklari yordamida ifodalangan bo‘lib, ularning barchasi o‘zaro bog‘liq holda Robiyaning umumiy ahvolini yorqin namoyon qiladi, uning iztiroblarini aks ettiradi. Ko‘rinadiki, sintaktik vositalar shaklida keltirilgan assotsiativ birliklar yordamida badiiy asar qahramonining ruhiy-hissiy holati tas’irli shaklda kitobxonga yetkaziladi.

Ishning uchinchi bobi **“Ruhiy holat ifodalashda noverbal vositalarning o‘rni”** deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi fasli *“Noverbal vositalar va ularning kommunikatsiyadagi ishtiroki”* deb ataladi. Paralingvistika yo‘nalishining rivoji va taraqqiy topishida dunyo tilshunosligida G.V.Kolshanskiy, T.M.Nikolayeva, BA.Uspenskiy, I.N.Gorelov, G.E.Kreydlin, M.L.Butovskaya³¹ kabi olimlarning xizmatlarini e’tirof etish zarur. O‘zbek tilshunosligida A.Nurmonov, M.Saidxonov, N.Yuldashev, B.Ahmedov, M.Kurbanov, M.Burxanova, M.Baratova, G.Xasanova³² larning tadqiqotlarida noverbal vositalarning xususiyatlari o‘rganilgan.

Imo-ishora, mimika, badan harakatlari kommunikatsiyada ishtirok etuvchi qo‘shimcha vositalar sanaladi. Ular axborot uzatishga, uning mazmunini to‘ldirishga xizmat qiladi. Bu ko‘proq jonli nutqda namoyon bo‘ladi va

³¹ Колшанский Г.В. Паралингвистика. – М.: Наука, 1974; Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика в ее соотношении с вербальной: Дисс. док. ...филол. наук. – М., 2000; Бутовская М.Л. Язык тела: природа и культура (эволюционные и кросс-культурные основы невербальной коммуникация человека). – М.: Научный мир, 2004.

³² Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари хакида. – Андижон, 1980; Саидхонов М. Нoverbal воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Юлдашев Н. Паралингвистика. – Нукус, 2011; Ахмедов Б.Р. Паралингвистик воситаларнинг гендерологик ва прагматик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Андижон, 2021; Курбанов М. Ўзбек, усмонли турк, инглиз ва рус тилларида нoverbal мулоқотни ифодаловчи воситалар тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Андижон, 2021; Бурханова М. Креолизатив матнларнинг паралингвопозитик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Фарғона, 2022; Baratova M. O‘zbekona paralingvistik vositalarning tizimiy tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Vuhogo, 2023; Xasanova G. Dialogik nutqda noverbal vositalarнинг ўрни va уларнинг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Фарғона, 2022.

soʻzlovchining fikrini qisqa, loʻnda, taʻsirchan ifodalash maqsadi bilan izohlanadi. Maʼlum axborotni tinglovchiga yetkazish jarayonida qoʻl, bosh, yelka, gavda, yuz harakatlari, ovozning baland-pastligi, choʻziq yoki qisqaligi ham maʼno ifodalaydi va aksincha, tinglovchining olayotgan informatsiyaga munosabati ham uning yuz ifodasidan sezilib turadiki, soʻzlovchi shunga qarab keyingi jummalarni tuzishda tinglovchi bilan moslashishga harakat qiladi. Psixolingvistik tahlillarda paralingvistik vositalarga nutqning taʻsirchanligini oshiruvchi omil sifatida qaraladi³³. Hissiyotlar, ularning nutqda aks etishi psixolingvistikaga oid masalalardan sanaladi. Shaxs ruhiy holati, hissiyotlarining aks etishida esa verbal vositalar bilan bir qatorda noverbal vositalar ham ishtirok etadi. Shu jihatdan olib qaralganda, noverbal vositalarning ruhiy holatlarni aks ettirish vazifasini tadqiq qilish zaruriy masalalardandir.

Verbal muloqot shaxslar oʻrtasida asosiy axborot almashinuv vositasi hisoblanadi va u soʻzlovchi nutqidagi maʼlumotni tinglovchiga osonlik bilan yetkazib berish, qabul qilish imkoniyatlarini yaratadi. Noverbal muloqot esa u haqdagi qoʻshimcha maʼlumotlarni ilgʻab olish, berilayotgan axborotni tez, qulay, ravshan va aniq ifodalash uchun xizmat qiladi. Nutqni yuzaga chiqaruvchi markaziy organ sanalgan tilga qoʻshimcha ravishda noverbal muloqot jarayonida inson yuzidagi tabassum, imo-ishora, ovoz ohangi, gavda qismlari, qoʻl harakatlari va boshqa usullar orqali muloqotdan koʻzlangan maqsadga batamom erishiladi³⁴. Noverbal vositalar xabarni verbal vositalarsiz lisoniy vositalarning bevosita vizual-ishoraviy koʻrinishlari orqali yetkaza oladi, ammo yozma matnlarda noverbal harakatni bevosita koʻrishning imkoni yoʻqligi uchun lisoniy birliklar yordamida noverballik haqida maʼlumotga ega boʻlamiz³⁵. Asarda qahramonning xafaligi, xursandligi, jahli chiqqani yoki hayratlangani ishora feʼllari yordamida ifoda qilinadi.

Bobning ikkinchi fasli “*Ruhiy holat ifodalovchi intonatsion vositalar*” deb nomlanadi. Intonatsion vositalar nutqning eng muhim komponentlaridan sanaladi. “Intonatsiya yordamida soʻzlovchining emotsional holatini, his-tuygʻularini, nutq yaratishdan maqsad-muddaosini, masalan, nutq orqali ifodalanmoqchi boʻlgan hamdardlik yoki gʻazab, mazaxlash yoki kesatish kabi maʼnolarni anglatish, tinglovchiga yetkazish mumkin”³⁶. Ogʻzaki muloqotda biror verbal xabarning ijobiy yoki salbiy maʼnoga egaligi aynan intonatsiya yordamida oydinlashadi.

Intonatsiya ohang, urgʻu, temp, pauza, tembr kabi tarkibiy qismlardan iborat. Ogʻzaki soʻzlashuvda bu vositalarni ilgʻash, barchasining ahamiyatini anglash mumkin, lekin yozma nutqda buning iloji yoʻq. Shu sababli yozuvchilar badiiy asarlarda qahramonlarning soʻzlashuv ohangi, tempi yoki pauzasini lisoniy vositalar yordamida ifoda qiladilar. Soʻzlovchi ovozining baland yoki pastligi badiiy matnda *shivirlash*, *pichirlash*, *baqirish*, *qichqirish* kabi lisoniy vositalar yordamida anglashiladi. Ovozning baland-pastligi koʻp hollarda ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

³³ Алпанова Ш. Нутқий фаолият жараёнидаги рухий ҳолатларнинг ўзбек тилининг турли сатҳ birlikлари воситасида акс этиши: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – Б.39.

³⁴ Курбанов М. Ўзбек, усмонли турк, инглиз ва рус тилларида новербал мулоқотни ифодаловчи воситалар тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Андижон, 2021. – Б.12.

³⁵ Хасанова Г. Диалогик нутқда новербал воситаларнинг ўрни ва уларнинг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – Б.12.

³⁶ Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. – Фарғона, 2021. – Б.121.

Shivirlamoq “juda past ovoz bilan, shivir-shivir qilib gapirmoq” ma’nosini anglatadi. Odatda, shivirlash atrofdegilar so‘zlashuvchilar suhbatini eshitmasliklari uchun yoki boshqa ko‘plab hissiy holatlar ifodasi sifatida amalga oshirilishi mumkin:

– *Qalaysan? – dedi shivirlab. Iljaydim. – Yaxshi!* (120-bet)

So‘zlovchi ovozi baliqligi badiiy matnda *baqirmoq, qichqirmoq, chinqirmoq, shang‘illamoq* kabi leksemalar yordamida verballashadi.

Baqirish salbiy hissiyotlarning yuzaga chiqishi natijasi bo‘lib, so‘zlovchiga jahl qilish, g‘azabini sochish maqsadida ovoz balandlatiladi: *Hozir ham arava tomonga yugurgan edim, dadam jahli chiqib baqirib berdi: – Borma u yoqqa!* (24-bet)

Qichqirmoq leksemasining bir necha ma’nolari mavjud bo‘lib, ulardan birinchisi “juda kuchli, jarangli ovoz chiqarmoq, baqirmoq” sanaladi.

– *Oldik! – dedi qiz bolanikiga o‘xshagan ingichka ovoza. Lekin o‘sha zahoti quvonch bilan qichqirib yubordi: – Aka!* (141-bet)

Chinqirmoq psixolingvistik jihatdan so‘zlovchining g‘azabini, nafratini yoki kuchli adovatini ifodalab, uning salbiy hissiyotlarini ifodalaydi: *Pakana kishi yana birpas xezlanib turdi-da, nari ketdi. Pastak eshikni oyog‘i bilan tepib, hovli ichkarisiga qarab g‘azabnok chinqirdi: – Chaqqon bo‘l. Hoy! Katta uyni bo‘shat!* (52-bet)

Shang‘illamoq leksemasi “baland ovoz bilan, baqirib gapirish” ma’nosiga qo‘shimcha ravishda “suhbatdoshga norozilik bildirish” konnotatsiyasiga ham ega:

– *Tekshiramiz, dedi. – Gunohi nima ekan, demaysanmi, ovsar! – Bobom hammasiga Oqsoqol buva aybdordek, shang‘illadi* (62-bet).

Vishillamoq “vish-vish” tovush chiqarmoq, “vish-vish” qilmoq³⁷ ma’nolarini anglatadi va asosan, narsa-buyumlar yoki ilon kabi hayvonlar ovozigga taqlidni bildiradi. “Ikki eshik orasi” romanida esa bu leksema intonatsion vositani verballashtirish maqsadida salbiy ma’noda, so‘zlovchining ovozi va gapirish ohangini ilonga o‘xshatish orqali salbiy bo‘yoq berish uchun qo‘llangan:

– *Siz... – dedi vishillab. – Ilg‘or boshqarmamizning umum maqsadiga ataylab bolta uryapsiz* (8-bet).

Chiyillamoq “ingichka, o‘tkir yoqimsiz ovoz chiqarmoq”³⁸ ma’nosini anglatadi, salbiy konnotatsiyaga ega. *Chiyillamoq* so‘zlovchining salbiy hissiyotlarini ifoda qiladi, norozilik, jahl natijasida yuzaga keladi:

– *Turgan-bitganing vahima-ya, Oqsoqol! – dedi chiyillab. – Shuni oldinroq aysang o‘lasanmi? Bitta uyni bo‘shatib qo‘yardim* (52-bet).

Yalinmoq leksemasi “o‘tinib, iltimos bilan so‘ramoq, yolvormoq” ma’nosini anglatadi: *Mazaxo‘rak bo‘lib goldim. – Qarang, yana qarang! – dedim yalinib.*

To‘ng‘illamoq, xo‘rsinmoq, uf tortmoq, ovozi titramoq, ovozi qaltiramoq, achinmoq, zardali ohang kabi ifodalarning ruhiy holat ifodalashdagi o‘rni asardan olingan misollar asosida dalillangan.

Nutq tempi og‘zaki so‘zlashuvda so‘zlovchining tez yoki sekin gapirishi bilan belgilanadi, badiiy matnda esa *gapirmoq, demoq* fe‘llari bilan birga keluvchi *tez, sekin, shoshib* kabi ravishlar bilan ifodalanadi: *Zor qaqshab yig‘lashidan eridi*

³⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. V jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B.705.

³⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. VI jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B.803

shekilli, bobom Kimsan akamning oyog'idan quchoqlab muk tushib o'tirgan oyimning boshiga egildi. – Onasi, – dedi sekin. – Yurtga kelgan to'y... Hamma urushga borsa-yu, Kimsan toshbaqadek boshini ichiga tortib o'tirsa yarashadimi? (100-101-betlar).

Keltirilgan matn parchasida so'zlovchi xotiniga sekin, nutq tempini pasaytirgan holda so'zlashi orqali unga ta'sir qilishni ko'zda tutgan. Sekin, shoshilmasdan, bosiqlik bilan gapirish orqali Duma xotinini tinchlantirishga urinadi, chunki bunday vaziyatda so'zlovchi o'zi xotirjam va bosiqlik bilan, nutq tempini pasaytirib so'zlamasa, tinglovchiga ta'sir ko'rsatib, uni tinchlantira olmaydi. Demak, verbal vositalarga qo'shimcha ravishda nutq tempining sekinlashuvi ham muloqotda maxsus psixolingvistik ta'sir vazifasini bajaradi.

Bobning uchinchi fasli "*Kinetik vositalarning ruhiy holat ifodalash imkoniyatlari*" deb nomlanadi. Kinetik vositalar noverbal vositalar ichida eng ko'p qo'llaniladigan vositalardan sanaladi. Kinetik vositalar tana a'zolari: gavda, bosh, qo'l, oyoq kabilarning harakatlari, yuz ifodalari, qosh, ko'z, lab kabilarning holati bilan bog'liqdir. Kinetik vositalardan har kuni, har qanday muloqotda foydalanish mumkin. Biroq madaniyatlararo muloqotda kinetik vositalarni qo'llashda ehtiyotkorlik talab etiladi. Chunki kinetik vositalar madaniyatlarga ko'ra farqlanadi. Bir madaniyatda ijobiy sanalgan kinetik vosita boshqasida salbiy ma'no anglatishi mumkin. Shuningdek, kinetik vositalarni vaziyatga mos ravishda qo'llash talab etiladi.

– Yaxshimas, o'rtoqlar... – dedi yupatuvchi ohangda... – Bunaqa dod-faryod qilish yaxshimas. – U bir zum jimib qoldi-da, boshidan chaqmoq telpagini oldi. – Nachora, bu – hayot-mamot jangi. Undan ko'ra Shokirjon bilan Zokirjonning xotirasini...

Birdan Oqsoqolning ko'zida o't chaqnadi. Nazarimda mo'ylovi ham dikkayib ketgandek bo'ldi. Tokchadagi telefon tutqichini yulqib Zakunchiga o'qtaldi. – Yo'qol, xotira-potirang bilan! – dedi xirillab. – Yo'qol! (186-187-betlar)

Oqsoqolning Shokir va Zokir ismli o'g'illariga qoraxat kelganini bilgach, Umar zakunchi ularning oila a'zolarini yupatish va ta'ziya izhor qilish maqsadida boshidan telpagini oladi. Bu o'zbek madaniyatiga xos harakat emas, g'arb madaniyatiga xos kinetik vosita sanaladi. O'z dardi o'ziga yetib turgan, o'g'illarining o'lmaganiga ishonchi komil oqsoqolga Umar zakunchining so'zlari yoqmaydi. Telpagini boshidan olib harakat qilishi esa oqsoqolning battar jahlini chiqaradi va uni haydab yuboradi. Demak, kinetik vositalardan o'z o'rnida foydalana bilish ham muhim sanaladi. Shuningdek, kinetik vositalar gender jihatidan ham farqlanadi.

– Voy, bole-em! Qo'shmozor bo'lgan bolam!

Fotima kelin tog'orani qorga uloqtirib ichkariga otildi. Ketidan Zuhra kelin, undan keyin men hovliga chopib kirdim. Ayvon tokchasida fonus xira yonib turardi. Xolposh xola sochlarini yoygancha, ayvonda oyog'ini uzatib o'tirar, tizzasiga mushtlab dodlar edi. – Qo'shmozor bo'lgan bol-e-em! (184-bet)

Tizzasiga urib, mushtlab faryod qilish ayollarga xos harakat hisoblanadi, erkaklar bunday harakat qilmaydilar.

– Gap zakunchiliqdamas! – Oqsoqol ijirg'anib yuzini o'girdi. – "Qoraxat" kelgan kuni so'kkanimning alamini olyapti. – Voy ablah-ey! – Cholim do'stining yelkasiga qoqdi. – Qo'yaver, it akilladi qo'ydi-da... (214-bet)

Do'stining yelkasiga qoqish esa erkaklar qo'llaydigan harakat sanaladi. Ayollar ham ba'zan ko'rishish, maqtash niyatida o'zlaridan kichik erkaklarning yelkalarini qoqishlari mumkin, biroq dugonalarining, boshqa ayollarning yelkalariga qoqmaydilar. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, kinetik vositalar gender jihatidan ham farqlanadi.

Tadqiqotchilar tomonidan aniqlanishicha, o'zbek muloqotida tana a'zolarining muloqot jarayonidagi ishtirokida qo'l harakatlarning nisbati 20%, barmoqlar harakati esa 13% ni ko'rsatib, o'zbekona nutqda eng faol noverbal birlik ekanligi aniqlandi. Bosh harakatlari 10%, yelka harakati 7%, ko'z ifodasi 7%, tizza harakati 5%, lab harakati 5%ni tashkil etadi³⁹. Ayrim paralingvistik vositalar ma'lum bir xalqning muomala qoidalari bilan bog'liqdir. Jumladan, ta'zim qilish, qo'lini ko'ksiga qo'yish, qo'l qovushtirish o'zbek, tojik xalqlari o'rtasida tarqalgan⁴⁰.

“Ikki eshik orasi” romanida qo'l harakatlari bilan bog'liq *bag'riga bosmoq, qo'lini paxsa qilmoq, qo'l siltamoq, uloqtirmoq, g'ijimlamoq*; bosh harakatlari bilan bog'liq *boshini chayqamoq, boshini ko'tarmoq*; yuz harakatlari bilan bog'liq *xijolatdan yuzlari lovullamoq, sholg'omdek qizarmoq, yuzini o'girmoq, chehrasi ochiq*; ko'z harakatlari bilan bog'liq *chaqchaymoq, ko'zi yonmoq, olaymoq, xo'mraymoq, qovoq uymoq, qovog'i uchmoq, ko'zi uchmoq*; lab harakatlari bilan bog'liq *labini burmoq, labi titramoq*; qosh harakatlari bilan bog'liq *qoshi chimirilmoq, shuningdek, soqoli titramoq, mo'ylabi titramoq* kabi kinetik harakatlar qahramonlarning ruhiy-hissiy holatini ifodalash uchun qo'llanilgan. Asarda *tizzasiga shapatilab xaholamoq, qornini ushlab xaholamoq, maza qilib kulmoq, jilmayib qo'ymoq, kulgi portlaydi, xandon otib kulmoq, iljaymoq, qiyqirib kulgi, qahqaha otmoq, kulimsiramoq, xixilab kulmoq, boshini changallab xaholamoq, tizzasiga urib kulmoq, qiyqirib kulmoq* kabi lisoniy vositalardan kulishning turli daraja va shakllarini ifodalash uchun foydalanilgan. Shuningdek, asarda Parcha xola obrazini tasvirlash, uning erkakshoda xarakteriga urg'u berish maqsadida *xo'-xo'lab kulmoq, do'rillab kulmoq, he-helab kulmoq* kabi birikmalar qo'llangan.

XULOSA

1. Tilshunoslikda so'nggi yillarda qiyosiy-tarixiy va sistem-struktur paradigmalar negizida vujudga kelgan antropotsentrik paradigma markazida tildan foydalanuvchi subyekt asosiy o'rindaligi bilan xarakterlanadi. Tildan foydalanuvchi subyekt sifatida nutqiy, kommunikativ va madaniy xususiyatlarni mujassamlashtirgan lisoniy shaxs tushuniladi. Kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya kabi yo'nalishlar antropotsentrik paradigmaning asosiy tarmoqlari sanaladi.

2. Til noyob hodisa sifatida nafaqat tilshunoslar, balki psixologlarning ham tadqiq obyektini sanaladi. Shu sababdan tilning inson ruhiyati va ongi bilan bog'liq jihatlarini o'rganish psixolingvistikaning tilshunoslik tarmog'i sifatida vujudga kelishi uchun asos bo'ldi. Psixolingvistikaga oid masalalar tadqiqi qadim zamonlardanoq tilshunoslarning diqqat markazida bo'lgan bo'lsa-da, u XX asrga kelib fan sifatida shakllandi.

³⁹ Baratova M. O'zbekona paralingvistik vositalarning tizimiy tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Buxoro, 2023. – B.22-23.

⁴⁰ Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 1 жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – B.222.

3. Ekspressiv funksiya lisoniy vositalar yordamida insonning ichki kechinmalari, hissiyotlarini aks ettiruvchi til funksiyasi sifatida badiiy matnda o'z o'rniga ega. Yozuvchi badiiy matnda ekspressiv funksiya yordamida asar qahramonlarining ruhiy holatini ifoda qiladi, ruhiy holatning ifodasi esa voqealarni ishonchli va jonli tasvirlashga xizmat qiladi, kitobxonga psixologik ta'sir ko'rsatish imkoni yuzaga keladi.

4. Ruhiy holatni ifoda qilishda fonetik, leksik, frazeologik, sintaktik birliklar o'z funksiyalariga ko'ra xizmat qiladi. O'xshatish, takror, ironiya kabi uslubiy vositalar esa qahramonlar ruhiy holatini ifodalash bilan birga, ular o'rtasidagi munosabatni ham ko'rsatish vazifasini bajaradi.

5. Ayollar va erkaklar nutqi ruhiy holatni ifoda qilishiga ko'ra farqlanadi. Ayollar nutqida ijobiy va salbiy ruhiy holatlar kuchli hissiy til bilan verballashadi. Erkaklar nutqi esa nisbatan bosiqligi bilan farqlanadi. Erkaklarning, asosan, g'azab, nafrat ruhiy hislarini boshdan kechirganlarida hissiy bo'yoqdor leksikadan foydalanishida lingvogenderologik farqlar namoyon bo'ladi.

6. Assotsiativ lisoniy birliklar badiiy matnni o'quvchi ongida assotsiativ obraz paydo qiladi. Bu esa ruhiy holatlar tasvirining ta'sir kuchini oshiradi, voqealarni aniq, ishonchli, jonli tasavvur qilishga yordam beradi.

7. Ruhiy holat verbal va noverbal vositalar yordamida yuzaga chiqadi. Badiiy matnda noverbal vositalar turli lisoniy vositalar, jumladan, ishora fe'llari yordamida verballashtiriladi. Ruhiy holatni akslantiruvchi noverbal vositalar beixtiyor va ixtiyoriy ravishga yuzaga chiqadigan holatlar sifatida tasnif qilinishi zarur.

8. Badiiy matnda so'zlovchini tinglash imkoniyati cheklanganligi sababli intonatsion jihatlar maxsus lisoniy vositalar yordamida ifodalanadi. Qahramonlarning so'zlash toni, tempi, ohangi, tembri kabi xususiyatlarning leksik va sintaktik vositalar yordamida ifoda qilinishi ularning ruhiy holatini ko'rsatib beradi.

9. Ovoz toni ixtoriy tanlanishi ma'lum, biroq ruhiy holat ta'sirida ovoz toni, tempi, ohangi o'zgarishi mumkin, bu so'zlovchi ixtiyoriga zid ravishda amalga oshadi. Ruhiy holat ta'sirida so'zlovchi verbal vositalarni tanlashi mumkin, biroq ovoz titrashi, qaltirashi kabi fiziologik holatlarni boshqara olmaydi.

10. Ruhiy holat, ichki kechinmalar, hissiyotlar kinetik vositalar yordamida ham aks etadi. Ijobiy va salbiy ruhiy holatlar ta'sirida tana, bosh, ko'z, lab, qosh, qo'l, oyoq, hatto soqol va mo'ylov kabi tana a'zolari harakati va holatining badiiy matnda verballashuvi badiiy matnning ta'sir darajasini oshirishga xizmat qiladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC
DEGREES DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 AT
FERGANA STATE UNIVERSITY
FERGANA STATE UNIVERSITY**

SHARIPOVA MAXLIYOXON GAYRATOVNA

**INVESTIGATION OF VERBAL AND NONVERBAL MEANS OF
EXPRESSING MENTAL STATE
(based on the novel “Between Two Doors”)**

10.00.01 – Uzbek language

**ABSTRACT
of the dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences**

Fergana – 2025

The theme of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered by the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under No. B2024.3.PhD/Fil5025.

The dissertation was completed at Fergana State University.

The abstract of the PhD dissertation is posted in three (Uzbek, English, Russian (Resume)) languages on the website of Fergana State University (www.fdu.uz) and on the website of "Ziyonet" information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific advisor:

Rozikova Gulbahor Zaylobidinovna
Doctor of Philological Sciences, Professor

Official opponents:

Jamolitdinova Dilnoza Mirxojiddinovna
Doctor of Philological Sciences, Professor

Yarashova Nasiba Jumayevna
Doctor of Philological Sciences, Professor

Leading organization:

Andijan State University

The defense of the dissertation will take place on "_____" 2025, at _____ p.m., at the meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 at Fergana State University (Address: 105, B.Marginoniy Street, Fergana, 100151. Tel: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

The dissertation is available for review at the Information Resource Center of Fergana State University (registration number _____). Address: 19, Murabbiylar Street, Fergana, 100151. Tel.: (99873) 244-44-94.

The dissertation abstract was distributed on "_____", _____ 2025.

(Mailing report №._____ dated "_____" _____, 2025).

A.G.Sabirdinov

Chairman of the Scientific Council
awarding Scientific Degrees, Doctor of
Philological Sciences, Professor

M.T.Abdupattoyev

Secretary of the Scientific Council
awarding Scientific Degrees, Doctor of
Philological Sciences, Professor

M.Y.Mamajonov

Chairman of the Scientific Seminar under the
Scientific Council awarding Scientific Degrees,
Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (abstract of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the research topic. In world linguistics, as a result of the integration processes taking place on a global scale, the rapid development of various fields of science and the emergence of discoveries are leading to the deepening and expansion of scientific directions. In the progress of science, new perspectives and new approaches are being required. As a result, at the end of the last century, various branches of anthropocentric linguistics, which are based on the methodology of studying language in connection with the human factor have evolved. In particular, pragmalinguistics, psycholinguistics, sociolinguistics, linguoculturology, cognitive linguistics, and ontolinguistics, acquired their own object, subject, goals, tasks, and methods of analysis and the study of the functional possibilities of language observed in the process of human speech activity from the standpoint of modern linguistic science is considered one of the important factors ensuring the development of this field. Linguistics of the 21st century is also putting on the agenda the necessity of studying the reflection of human inner experiences and emotions in language.

In world linguistics, the study of various linguistic and non-linguistic units expressing the human mental state has always occupied a central position. In order to convey speech to the listener in a complete and vivid way, words that express emotions existing in the language are used; as a result, it becomes possible to communicate events and phenomena to the listener's consciousness more clearly and intelligibly. In recent years, a number of scientific studies have been conducted on issues such as emotional-expressive vocabulary, linguistic units expressing feelings and emotions, and the connotative meaning of words from a linguistic point of view. Indeed, the investigation of various linguistic and non-linguistic units expressing mental states, which play a special role in making communication lively, impressive, and attractive, as well as their stylistic, psycholinguistic, and gender characteristics within the modern aspects of linguistics, has become one of the essential tasks of the field.

In recent years, special attention has been paid in our country to bringing the fields of science and education to a new stage as the foundation of development. Indeed, as our President has emphasized, "the development of education and upbringing, the establishment of a healthy lifestyle, and the advancement of science and innovations should serve as the main pillars of our national idea."¹ Therefore, today it is of great importance to solve the existing urgent problems in every sphere based on the achievements of science. In particular, the fact that the stylistic, psycholinguistic, and gender features of linguistic and extralinguistic means expressing mental states in the Uzbek language have not been sufficiently studied on the basis of specific literary works gives rise to the necessity of researching this issue in a monographic form.

This dissertation, to a certain extent, serves the implementation of the tasks set forth in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5850 "On Measures for the Radical Improvement of the Prestige and Status of the Uzbek Language as the State Language", dated October 21, 2019, No. PF-6084

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasi. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998> – 7.04.2022-y. (murojaat sanasi: 10.01.2024).

“On Measures to Further Develop the Uzbek Language and Improve Language Policy in Our Country”, dated October 20, 2020, No. PF-60 “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026” dated January 28, 2022; as well as in the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4479 “On the Wide Celebration of the Thirtieth Anniversary of the Adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan ‘On the State Language’” dated October 4, 2019, and other regulatory and legal documents related to this activity.

The appropriateness of the research to the prior directions of the development of science and technologies. This study was carried out within the framework of the priority direction of the development of science and technology of the Republic I. “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state”.

The scope of the study of the problem. In world linguistics, the expressive features of speech and the characteristics of mental states related to connotation have been widely studied. Linguists such as Y.Galkina-Fedoruk, V.Vinogradov, V.Edmondson, P.Ekman, S.Ionova, Y.Wolf, Y.Arnold, V.Teliya, V.Shakhovsky, A.Verzbika, A.Bell, R.Solomon, and L. Stone² have conducted research on these issues.

In Uzbek linguistics as well, significant studies have been carried out in this field. Scholars such as M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov, Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, Kh.Doniyorov, A.Hojiyev, U.Tursunov, J.Mukhtorov, Sh.Rahmatullayev, Sh.Iskandarova, S.Mominov, G.Kabuljonova, H.Jamolxonov, G.Kambarov, and M.Mirtojiyev³ have devoted attention to this issue in their scientific research. I.Kuchkortoyev⁴ studied the emergence of emotional-expressive features based on word combinations; A.Abdullayev⁵ investigated the methods of expressing emotional-expressiveness; R.Kongurov, R.Hadyatullayev,

²Галкина-Федорук Е.М. Об экспрессивности и эмоциональности в языке // Сб. статей по языкознанию. – М., 1958; Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – М., 1959; Edmondson W. Spoken Discourse: a Model for Analysis. London. – К.у., 1981; Ekman P. Emotion in the human face. Second edition. – Cambridge University Press, 1982; Ионова С. Эмотивный компонент значения и методы его описания. – Волгоград: Волгоград. гос. пед. институт, 1983; Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. – М.: Наука, 1985; Арнольд В.И. Лексикология современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1986; Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М.: Наука, 1986; Шаховский В.И. Категоризация эмоций в лексико-семантической системе языка. – Воронеж: Воронежского университета, 1987; Телия В.Н. Механизмы экспрессивной окраски // Человеческий фактор в языке: Языковые механизмы экспрессивности. – М.: Наука, 1991; Wierthbicka A. Defining emotion concepts. Article in Cognitive science. A multidisciplinary journal, 1992; Beall A. Gender and the Perception and expression of emotion: PhD thesis. – Yale University, 1994; Solomon R., Stone L. On Positive and Negative Emotions: Journal for the Theory of Social Behaviour, 2002.

³Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978; Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1 қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980; Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985; Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992; Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарканд, 1993; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот ҳулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Кабулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005; Қамбаров Ф. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Миртожиёв М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010.

⁴Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977.

⁵ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983; Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодаланиши синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987.

Sh.Goziyeva, and G.Kambarov⁶ explored the issue of subjective evaluation; M.Mirtojiev⁷ analyzed the expression of expressiveness through phonetic means; S.Goyibov and Y.Isaqova⁸ conducted research on lexical units expressing expressiveness. In this regard, the studies of M.Mamadaliyeva, Z.Mamarajabova, N.Ahmedova, A.Haydarov, S.Maksudova, and Y.Isakova⁹ are also noteworthy. However, up to the present time, the linguistic and non-linguistic means of expressing mental states have not been studied on the basis of a specific author's work. This, in turn, necessitates a monographic study of the given topic.

Relevance of the research to the research plans of the scientific institution where the dissertation is being carried out. This dissertation has been completed within the framework of the research plan of Fergana State University under the topic "Topical Issues of Anthropocentric Linguistics".

The aim of the research is to study the linguistic and non-linguistic means expressing mental states used in O'tkir Hoshimov's novel "Between Two Doors".

The objectives of the research:

